

Mustaqillik bayramiga chegirma

2024 6 Avgust

Chegirma shartlari quyidagicha:

- Aviachiptalar sotuvi: 2024-yil 6-avgustdan 2024-yil 3-sentabrgacha gacha;
- Parvoz qilish muddati: 2024-yil 31-avgustdan 2024-yil 3-sentabrgacha
- Chegirma respublika ichidagi borish va qaytish aviaqatnovlarida ekonom va biznes klass xizmat ko'rsatishning barcha e'lon qilingan individual tariflari uchun ruxsat etiladi.

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun tarifdan – 30% gacha;
- 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun kattalar tarifidan 48% chegirma taqdim etiladi;
- Yuqorida chegirmalar 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
- Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi, bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi. Qisman foydalanilgan aviachipta pulini chegirma tugagandan keyingi kunda qaytarmoqchi bo'lgan yo'lovchi chegirma amal qilgan kunda sotib olgan miqdorda qaytarib oladi;
- To'liq foydalanilmagan yoki qisman foydalanilgan aviachiptalarni qayta rasmiylashtirganda, agar jo'nash sanalaridan biri chegirma tugagan vaqt dan keyinga to'g'ri kelmasa, to'liq tarif darajasiga chegirmalar qo'llanilmaydi.
- Chegirmalarni birlashtirish (bolalarniki bundan mustasno) taqiqlanadi;

Eslatma: Yo'lovchi va yuk tashish tariflariga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'implar va to'lovlar ham o'rnatiladi. 30% gacha chegirma yig'implar, soliqlar va boshqa qo'shimcha to'lovlar uchun amal qilmaydi.

Eslatma: Ushbu chegirmalar faqat "Uzbekistan Airways" Ajning aviaqatnovlariga taalluqlidir va "Uzbekistan Helicopters" va "Silk Avia" HY1001-1100 aviaqatnovlarida

qo'llanilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy booking.uzairways.com sayti,
shuningdek, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki
aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.